

REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIALISED  
EDUCATION  
BUKHARA STATE UNIVERSITY

English Linguistics Department

INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS,  
FUNCTIONAL TRANSLATION STUDIES AND  
LANGUAGE TEACHING PROCESSES

(dedicated to the 75<sup>th</sup> anniversary of Candidate of Philological Sciences,  
Associate Professor M.Kh.Alimova)

Proceedings of International Scientific-theoretical Webinar

The poster features the logo of Buxoro Davlat Universiteti (Buxoro State University) with the text "BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI 1930". Below it is a banner with "2020-YIL 25-DEKABR". In the center is a blue sunburst icon. To the right is a circular logo for the English department ("Department Eng") with "SOAT 10:00" below it. The main title "Buxoro davlat universiteti Xorijiy tillar fakulteti Ingliz tilshunosligi kafedrasи" is at the top. Below it is the subtitle "“PRAGMALINGVISTIKA, FUNKSIONAL TARJIMASHUNOSLIK VA TIL O’RGATISH JARAYONLARI INTEGRATSIYASI”" and the note "(Filologiya fanlari nomzodi, dotsent M.H.ALIMOVA tavalludining 75 yilligiga bag’ishlanadi) mavzusida tashkillashtirilgan Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman". On the left is a portrait of Associate Professor M.Kh.Alimova. In the center is a photograph of the Kalyan Minaret in Bukhara. On the right are two smaller photographs: one of students in a classroom and another of a group of people. The bottom right corner contains the text "Manzil: Buxoro davlat universiteti, Buxoro shahar M.Iqbol ko’chasi 11-uy."

BUKHARA -2020

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**Инглиз тилшунослииги кафедраси**

**ПРАГМАЛИНГВИСТИКА, ФУНКЦИОНАЛ  
ТАРЖИМАШУНОСЛИК ВА ТИЛ ЎРГАТИШ  
ЖАРАЁНЛАРИ ИНТЕГРАЦИЯСИ**

(Филология фанлари номзоди, доцент М.Х.Алимова таваллудининг 75  
йиллигига бағишланади)

**мавзусидаги халқаро миқёсидаги онлайн  
илмий-назарий конференция материаллари  
ТҮПЛАМИ**

**2020 йил, 25 декабрь**

**Бухоро  
"Дурдона" нашриёти  
2020**

<i>Ro'ziyeva D.S.</i> Intellectual novel.....	262
<i>Саъдуллаева Л.Б., Бахтиёр А.Ф.</i> "Shirley" асарида реалистик роман хусусиятларининг ифодаланиши.....	265
<i>Usmonova M.A.</i> Asar personajlari va tabiat tasvirida qo'llanilgan leksik-stistik vosalarning roli va vazifasi.("The Physician" romani tahlili asosida).....	270
<i>Usmonova Z.Kh.</i> The allegoric characters in Faulkner's "A Fable".....	274
<i>Ниязова М.Х.</i> Ўзбек алла кўшикларида олқиши мавзулари.....	278
<i>Ганиева О.Х.</i> Жон Стейнбек ижоди жаҳон адабиётшунослари нигоҳида.....	281
<i>Очилова Н.Ў., Убайдуллаева Ф.</i> Анималистик адабиётда "от" образи.....	285
<i>Аминова Е.А.</i> Функциональные особенности американского студенческого сленга.....	288
<i>Usmonova Z.H., Tojieva F.K.</i> Mesmerising blend of love, spirituality and religion in the novel of Elif Shafak "Forty rules of love" .....	291
<i>Sadullaeva M.A.</i> Numbersand their symbolic significance in the East.....	293
<i>Djumayeva N., Bobokhodjaeva Z.</i> Magical items helping main heroes in English fairy tales.....	298

### **3-ШЎБА: ГЛОБАЛЛАШУВ ДАВРИДА ҚИЁСИЙ ТИЛШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМА МУАММОЛАРИ**

<i>Маматов А.Э.</i> Провербальные фразеологизмы как средство формирования навыков межкультурной коммуникации.....	302
<i>Alimova M.Kh., Gaybullayeva Kh.M.</i> Pragmatic approach to the linguo-cognitive analysis of the concept "Father" in the English and Uzbek languages.....	304
<i>Qosimova N.F., Sharipova M.U.</i> Ingliz va o'zbek tillari "rang" komponentli frazeologizmlarida antroposentrism ifodasi .....	307
<i>Khayrullayeva N., Eshonqulova N.</i> Ingliz va o'zbek tillarida so'zlarning leksik va grammatik ma'nosi qiyosiy tahlili.....	310
<i>Абдуллаева Н.О.</i> Инглиз ва ўзбек тилларида фразеологизмларнинг лингвомаданий хусусиятлари.....	314
<i>Абдуллаева Н.О.</i> Инглиз ва ўзбек тилларидаги мақолаларидан олинган мисоллар асосида стилистик даражаланиш.....	317
<i>Abdullahayeva G.G.</i> Yosh tarjimonlarda sinxron tarjima qilish ko'nikmalarini shakllantirish usullari.....	320
<i>Ибрагимова Г.Р.</i> Таржимада когнитив диссонанс феномени.....	325
<i>Axmmedova S.H., Razoqova K.</i> Ingliz va o'zbek xalq ertaklari qiyosiy tahlili («The Little Bull-Calf» va «Bo'z bola» ertaklari misolida).....	328
<i>Ниязова М.Х., Оромова М.У.</i> Ўзбек ва инглиз муножот шеърларида олқишиларнинг қиёсий таҳлили.....	331
<i>Safoyeva S., Abdullayeva D.</i> Tarjima jarayonida ikki tilning o'zaro muqobilligi.....	333
<i>Санакулов З.И.</i> Композитанинг луғатларда акс эттириш тамойиллари .....	336

system-structural paradigm was the focus of attention. In the anthropocentric paradigm, however, the human factor that uses language as the subject of linguistics is of paramount importance.

In English linguistics, the concepts of “father” form a cultural concept and are represented by a number of language units belonging to different language levels in the English national landscape.

Thus, it can be concluded that the exchange of the concepts of “father” in English and Uzbek languages are important in the scientific research carried out in the context of modern linguistics.

#### **The list of used literature:**

1. Dal VI. Explanatory Dictionary of the Living Great Russian Language.
2. Maslova V.A. Cognitive linguistics. Minsk, 2005.
3. Rakhmatullaev Sh. U. Explanatory phraseological dictionary of the Uzbek language. T., 1978.
4. Stepanov Yu.S. Constants: Dictionary of Russian culture. M, 2004, pp. 42-67.
5. Askoldov S.A. Concept and word // Russian literature. From the theory of literature to the structure of the text. Anthology. M., 1997, pp. 267-279
6. Collins Cobuild. Advanced Learner's English Dictionary. New Digital Edition. [Electronic resource]. Access mode: <http://www.mycobuild.com/free-search.aspx>
7. Likhachev D.S. Logical analysis of language. Cultural concepts. M., 1991
8. Karasik V.I. On the categories of linguoculturology // Language personality: problems of communicative activity. Volgograd, 2001.S.

### **INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI “RANG” KOMPONENTLI FRAZEOLOGIZMLARIDA ANTROPOSENTRIZM IFODASI**

*N.F.Qosimova,  
PhD (BuxDU),  
M.U.Sharipova,  
1-kurs magistranti (BuxDU)*

**Abstract.** The presented article analyses the national and cultural features of phraseological units of non-related languages in the framework of anthropocentric paradigm. The main focus has been done on the functional peculiarities of color-oriented idioms in the English and Uzbek languages based on dictionaries as well as on the linguistic theories.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada antropotsentrik paradigma doirasida turli tizimli tillarfrazeologik birliklarining milliy va madaniy xususiyatlari tahlil qilingan. Asosiy e'tibor ingliz va o'zbek tillari lug'atlari, shuningdek lingvistik

nazariyalar asosida yaratilgan rang komponentli iboralarning funksional xususiyatlariga qaratilgan.

**Аннотация.** В данной статье анализируются национально-культурные особенности фразеологизмов неродственных языков в рамках антропоцентрической парадигмы. Основное внимание уделяется на функциональные особенности идиом с цветоозначающим компонентом в английском и узбекском языках на основе словарей, лингвистических теорий.

**Kalit so'zlar:** komponent, antropotsentrizm, til, madaniyat, hissiyot, funksional.

**Key words:** component, anthropocentrism, language, culture, emotion, functional.

**Ключевые слова:** компонент, антропоцентризм, язык, культура, эмоция, функциональный.

Dunyoda har bir rang bir olam ma'noni anglatadi. Bugungi kunda dunyo olimlari tomonidan ranglar yordamida ramziy muloqot qilish, insonlarni davolash, tarbiyah, ranglar hamohangligi vositasida falsafiy fikr yuritish, rang orqali insonlarning ichki ruhiy kechinmalarini va tuyg'ularini aniqlash kabi ko'plab tadtiqotlar amalga oshirilmoqda.

Ingliz va o'zbek lingvomadaniyatlarida ham ranglar ramziy ahamiyatga ega. Mazkur tillar frazeologik tizimi lingvomadaniy tamoyillar asosida shakllanganligi sababli ularda ham rang semantikasi muhim o'rinn tutadi.

Ingliz va o'zbek tillarining "rang" komponentli frazeologizmlarida antroposentrizm ifodasini tahlil qilish natijasida 2 semantik guruh mavjudligi aniqlandi.

1.Inson xarakter xususiyatlarini tasvirlovchi fraseologik birliklar.

2.Inson tashqi ko'rinishini aks ettiruvchi frazeologik birliklar.

Ingliz va o'zbek tillarida oq rang kishining to'g'rilik va vijdonlilik kabi ijobjiy xislatlarini ifodalaydi. Masalan, *To have white hands* (sof vijdonga ega bo'lmoq), *the white rose of virginity (innocence)* (begunoh, beayb) frazeologizmlari fikrimizni dalillaydi). O'zbek tilida *Oq ko'ngil* (ko'ngli oq) (yaxshi niyatli, boshqalarga yomonlikni ravo ko'rmaydigan) iborasi mavjud.

Qora rang ikki tilda ham ko'pchilik hollarda insonning salbiy xarakter xususiyatlarini ifodalashda ishlataladi: ingliz: *A black soul – g'arazgo'y; the black sheep – oilasiga isnod keltirgan kishi;* o'zbek: *Ichi qora – buzuq niyatli.*

Shuni ta'kidlash joizki, *oq* va *qora* ranglar birgalikda uzoq o'tmishdan asosiy emotsiyal vosita sifatida qo'llanib kelinmoqda. Bu ranglar odatda yaxshilik va yomonlik, foyda va zarar kabi zid mazmun kasb etadi. Masalan:

ingliz: *See things in black and white* – vaziyatning yaxshi va yomon taraflarini bilish; o'zbek: *Oq qorani tanimoq* – hayotiy tajribaga ega bo'lmoq, foyda va zararni bilmox. Ko'k rang ingliz tilida insonlarga nisbatan yuqori ijtimoiy tabaqa, aql idrok, sadoqat ramzi sifatida qo'llanilgan [4, 58]. Masalan, *Blue blooded* – Ziyoli oiladan chiqqan; *A blue eyed boy* – yoqimtoy bola; *True-blue* – sadoqatli.

Bundan farqli o'laroq o'zbek tili frazeologizmlarida "ko'k" so'zi osmon tushunchasi sifatida talqin qilingan: *Ko'kka ko'tarmoq* – maqtamoq; *Ko'kka sovurmoq* – behudaga ishlatmoq;

Yashil inglizlar talqinida hasad va rashk ramzi bo'lib kelgan. Masalan, *Be green with envy* – hasad qilmoq; *The green-eyedmonster* – rashk. Ushbu ifoda Shekspirning "Otello" tragediyasi 3-parda, 3-ko'rinishida Yago obrazi tomonidan ishlatilgan:

*"O! Beware my lord of jealousy;  
It is the green-eyed monster  
which doth mock  
The meat it feeds on"* [2,129].

Rashkdan biroz saqlaningiz, muhtaram sardor.  
Bu zangor ko'z ajdar nusxa-horiqulodda  
O'z qurbanin tahqir qilib qah-qah soladi.

Ammo, "to give someone green light" iborasida *green* yashil chiroq ma'nosidan kelib chiqqanligi bois *biror kishiga ruxsat bermoq*, yo'l ochib bermoq kabi ma'nolarni ifodalaydi. Tashqi ko'rinishni tasniflovchi frazeologik birliklarda oq rang ikki tilda ham holsizlik, ojizlik kabi ma'nolarda ishlatiladi: *Be white as a sheet (paper)* iborasining o'zbek tilidagi ekvivalenti "yuzi oqarmoq" – Biror kasallik yoki qo'rquv sabab yuz rangi o'zgarmoq. Shuningdek, *green* komponenti ham ingliz tilida kasallik ma'nosida talqin qilinadi.

*Be (look) green about the gills* [2,129]– Betob ko'rinoq.

"Qora" ingliz frazeologizmlarida xunuklik, jahldorlik kabi ko'rinishlarni tasniflaydi:

*Black look* – g'azabnok yuz ifodasi.  
*Black and blue* – zarb yegan.

Bundan farqli o'laroq o'zbek tili iboralarida "qora" so'zi shakl, sharpa kabi ma'no kasb etadi: *Qorasini ko'rsatmaslik* – Kimningdir ko'ziga ko'rinishmaslik; *Qorasi o'chdi* – Uzoqlashdi, ko'rinnmay qoldi. *Go(turn) red /go as red as a beetroot* frazeologizmi uyalmoq, *xijolat bo'lmoq* mazmuni bilan o'zbek tilidagi *yuzi qizarmoq* iborasiga sinonim bo'la oladi.

Xulosa qilib aytganda, borliqdagi turfa ranglar orqali inson ko'rinish ifodalari, tuyg'ulari, xarakter xususiyatlarini namoyon etish mumkin. Ingliz va o'zbek tillarining "rang" komponentli frazeologizmlarida antroposentrizm ifodasining qiyosiy tahlili natijasida 2 semantik guruh; inson xarakter xususiyatlarini hamda tashqi ko'rinishini aks etuvchi frazeologik birliklar mayjudligi aniqlandi. Antroposentrizm tamoyili ikki tilda ham tarixiy, madaniy va diniy omillar evaziga sezilarli o'xshashlik va farqlarga ega.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.Cambridge Advanced Learner's Dictionary. 3<sup>rd</sup> Edition. – Cambridge, 2008.
- 2.Oxford Dictionary of Idioms. 2<sup>nd</sup> Edition. Edited by Judith Siefring. – London, 2004.

3. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. Ш.Рахматуллаев таҳрири остида. – Тошкент, 1978.
4. Nurmiyeva R.R. Anthropocentric Phraseological Units with “Color” Components in the English, Russian and Tatar Languages // The Journal of Social Science Research. – Moscow, 2018.
5. Сакаева Л.Р. Сопоставительный анализ фразеологических единиц антропоцентристической направленности. – Москва, 2009.

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SO'ZLARNING LEKSIK VA GRAMMATIK MA'NOSI QIYOSIY TAHLILI

*N.N.Khayrullayeva  
(BuxDU),  
N.Eshonqulova,  
IV bosqich talabasi (BuxDU)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz hamda o'zbek tillarida so'zlarning leksik va grammatik ma'nosi misollar, qiyosiy tahlillar asosida yoritib berilgan, tillardagi o'zaro mushtarak hamda farq qiluvchi jihatlar tahlil qilingan.

**Annotation.** This article describes the lexical and grammatical meaning of words in English and Uzbek on the basis of examples, comparative analysis, analyzes the commonalities and differences in the languages.

**Аннотация.** В данной статье на примерах, сравнительном анализе описывается лексико-грамматическое значение слов английского и узбекского языков, анализируются общности и различия языков.

**Kalit so'zlar:** sintetik, analitik, grammatik kategoriyasi, derivatsion, flektiv.

**Key words:** synthetic, analytical, grammatical category, derivation, inflection.

**Ключевые слова:** синтетическая, аналитическая, грамматическая категория, словообразование, флексия.

Til kommunikativ tizim sifatida turli xil ma'lumotlarning uzatilishini ta'minlaydi. Bu narsalar, hodisalar, tashqi voqelikdagi ishlarning holati va kognitiv faoliyatning subyekтив harakatlari va ma'ruzachining shaxsiy tajribalari to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek, izchil nutqni qurishda ishlatiladigan usullar va ishlatilgan til birliklari va ularning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida xizmat ko'rsatish to'g'risidagi ma'lumotlar, imkoniyatlari. Shunday qilib, bizning nutqimiz so'zlarning mexanik to'plami emas. Ammo tushunarli bo'lishi uchun nafaqat to'g'ri so'zlarni tanlash, balki ularni tegishli grammatik shaklga qo'yish, jumladagi so'z shakllarini mohirlik bilan birlashtirish va tartibga solish kerak.

So'z tilshunoslikning turli bo'limlarida o'rganiladi, chunki u ovoz dizayni, ma'nosi, grammatik xususiyatlariiga ega, ya'ni tilning turli tomonlarining xususiyatlarini birlashtiradi. So'z ikki tomonlama birlikni anglatadi: shakl